

1. Aristotle. The Complete Works of Aristotle. Princeton: Princeton University Press, 1984. pp. 218–223.
2. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М.: Высшая школа, 1972. 614 с.
3. Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики. Л.: Наука, 1987. 348 с.
4. Comrie B. Tense. Cambridge: Cambridge University Press, 1985. 139 p.
5. Кант И. Критика чистого разума. М.: Мысль, 1994. 734 с.
6. Маслов Ю.С. Введение в языкознание. М.: Высшая школа, 1997. 272 с.

Endirboyeva Zilola Safarboy qizi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti zilolaendirboyeva787@gmail.com
ORCID ID:0009-0007-2624-3448



BOSHLANG'ICH SINFDA O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

<https://zenodo.org/records/19878171>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish jarayonida ijodiy topshiriqlarning pedagogik ahamiyati ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilingan. O'qish savodxonligi tushunchasining mazmuni, uning xalqaro baholash mezonlari asosida talqini, ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida kuzatish, pedagogik tajriba va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ijodiy topshiriq, kreativlik, boshlang'ich ta'lim, kognitiv rivojlanish, affektiv rivojlanish, innovatsion salohiyat.

НАЧАЛЬНОЕ ФОРМИРОВАНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и методологической точек зрения анализируется педагогическое значение творческих заданий в процессе формирования навыков чтения у учащихся начальной школы. Освещается содержание концепции грамотности чтения, её интерпретация на основе международных критериев оценки, а также механизмы развития самостоятельного мышления, анализа и речевой компетенции учащихся посредством творческих заданий. В исследовании использованы методы наблюдения, педагогического опыта и сравнительного анализа.

Ключевые слова: читательская грамотность, творческое задание, креативность, начальное образование, компетентностный подход, педагогические технологии.

THE IMPORTANCE OF CREATIVE TASKS IN DEVELOPING READING LITERACY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of creative tasks in the process of forming reading literacy in primary school students from a scientific, theoretical and methodological perspective. The content of the concept of reading literacy, its interpretation based on international assessment criteria, and the mechanisms for developing students' independent thinking, analysis, and speech competence through creative tasks are highlighted. The research used observation, pedagogical experience, and comparative analysis methods.

Keywords: reading literacy, creative task, creativity, primary education, competency-based approach, pedagogical technology.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun o'qish savodxonligi asosiy poydevor hisoblanadi. Axborot oqimining shiddatli o'sishi sharoitida shunchaki o'qish emas, balki matnni chuqur tushunish, uni tanqidiy baholash, talqin qilish va olingan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinflar esa ushbu fundamental ko'nikmalarni shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Bu davrda o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularni faol kitobxonga aylantirish hamda mustaqil fikrlashga o'rgatish pedagogikaning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Shu sababli bugungi kunda o'qish savodxonligi tushunchasiga shunchaki ta'limning boshlang'ich davridagi o'quvchining harf tanish jarayoni sifatida qaralmaydi. Endilikda o'qish savodxonligi ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu insonning barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish, unga munosabat bildirish va undan foydalanish jarayonidir. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" bo'yicha qo'llanmada o'qish savodxonligiga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'qish savodxonligi - shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir"[1].

Hozirgi ta'lim jarayonida o'qish savodxonligini shakllantirishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki an'anaviy ta'lim usullari ba'zan o'quvchilarda matnni mexanik yod olishga moyillikni keltirib chiqarishi, matn bilan chuqur muloqotga kirishishga va ijodiy fikirlashga turtki bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvlarni, xususan, ijodiy topshiriqlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni faol intellektual jarayonga jalb etib, ularning matnni nafaqat tushunishini, balki uni o'z nuqtai nazaridan qayta ishlashini, yangi g'oyalar yaratishini va o'z fikrlarini original tarzda ifodalashini ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning nazariy va amaliy ahamiyatini atroflicha tahlil qilish, ularning o'quvchilarning kognitiv va affektiv rivojlanishiga ta'sir mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: o'qish savodxonligi va ijodiy

yondashuvning nazariy asoslarini o'rganish; boshlang'ich sinflarga mos ijodiy topshiriqlarning turlari va ularni qo'llash metodikasini aniqlash; ijodiy topshiriqlarning o'qish savodxonligini shakllantirishga ta'sirini va uning mexanizmlarini tahlil qilish; o'qish savodxonligini baholashda ijodiy topshiriqlarning o'rnini va samaradorligini ko'rib chiqish.

Maqola ijodiy topshiriqlarning o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi innovatsion salohiyatini ochib berishga, pedagoglar va o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan. Bu esa kelajakda boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish savodxonligini yanada samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish savodxonligini ijodiy tashkil etish, ularning qiziqishini oshirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga molikdir. Interaktiv va o'yin metodlari, yaratuvchanlik va ijodiy faoliyat orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi oshiriladi va ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi. O'qish savodxonligini o'lchash esa o'quvchilar bilimi, o'quv natijalari va ijodiy yondashuvlarning samaradorligi orqali amalga oshirishga xizmat qiladi[2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib ta'limi taraqqiy etgan mamlakatlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan[3].

Anvarova Manzura Anvarovna pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)ning dissertatsiyasida shunday fikrlar berilgan: "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish, ularda mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga doir interfaol topshiriqlar tizimini, o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik mexanizmini ishlab chiqish, texnologik bosqichlarini aniqlashtirishga sabab bo'lganligi aytib o'tilgan"[4].

Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarda divergent fikrlashni, original g'oyalar yaratishni va muammolarga nostandart yechimlar topishni rag'batlantiruvchi pedagogik vositadir. Torrance ijodkorlikni muammolarni aniqlash, bo'shliqlarni to'ldirish, gipotezalar yaratish va ularni sinash qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Maktab yoshidagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish ularning nafaqat bilim olish jarayonidagi faolligini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, o'ziga ishonchini shakllantirish va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ijodiy topshiriqlarni qo'llash matnni o'rganish jarayonini qiziqarli va ma'noli qilish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O'qish savodxonligi va ijodiy yondashuv o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini chuqur tahlil qilishga, uning yashirin ma'nolarini topishga, qahramonlarning kechinmalarini o'z tasavvurlari orqali his qilishga undaydi. Bu esa oddiy o'qishdan farqli o'laroq, matn bilan interaktiv muloqotni ta'minlaydi. Masalan, matn asosida hikoya davomini yozish, rasm chizish, sahnalashtirish yoki qahramonlar nomidan xat yozish kabi topshiriqlar o'quvchilarni matnni faol qayta ishlashga majbur qiladi. Bu jarayonda ular nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki matnni tushunishning yuqori bosqichlariga ko'tarilib, uni talqin qilish va baholash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Vygotskiyning ta'kidlashicha, bolalar o'zlarining "yaqin rivojlanish zonasi"da ijodiy harakatlar orqali yangi ko'nikmalarni egallaydilar, bu esa o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar bilan samarali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, ijodiy topshiriqlar o'quvchining o'qish jarayoniga hissiy bog'lanishini kuchaytiradi, bu esa o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot sifatiy, nazariy-tahliliy yondashuvga asoslanadi. Uning maqsadi boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning nazariy ahamiyatini va ta'sir mexanizmlarini atroflicha o'rganishdan iborat. Tadqiqot empirik ma'lumotlarni yig'ishga qaratilmagan bo'lib, mavjud pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, sintez qilish va konseptual modellar orqali amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va sintezi: O'qish savodxonligi, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha milliy va xalqaro pedagogik, psixologik adabiyotlar chuqur o'rganildi. Bu ijodiy topshiriqlarning nazariy asoslarini, ularning turlarini va o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlashga yordam berdi.

Qiyosiy- pedagogik tahlil: An'anaviy o'qitish usullari bilan ijodiy topshiriqlarga asoslangan yondashuvlar o'rtasidagi farqlar, ularning o'qish savodxonligiga ta'siri nuqta nazaridan tahlil qilindi. Bu ijodiy yondashuvning afzalliklarini ko'rsatishga imkon berdi.

Tizimli yondashuv: Ijodiy topshiriqlar va o'qish savodxonligi o'rtasidagi bog'liqlik kompleks tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu ijodiy topshiriqlarning matnni tushunishning turli bosqichlari(dekodlash, tushunish, talqin qilish, baholash) va ularning kognitiv hamda affektiv mexanizmlariga ta'sirini tushunishga yordam berdi.

Konseptual modellar: Ijodiy topshiriqlarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga ta'sir etish mexanizmlari (masalan, motivatsiyani oshirish, chuqur idrokni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni faollashtirish, o'z-o'zini ifodalashni rag'batlantirish) tushunchasi darajasida shakllantirildi va tasvirlab berildi.

Matn asosida hikoya, ertak, she'r yozish.

Matnning davomini o'ylab topish yoki yakunini o'zgartirish.

O'qilgan matn bo'yicha rasm chizish, komiks yaratish, kollaj tayyorlash.

Qahramonlar obrazini tahlil qilib, ular nomidan xat yozish, kundalik tutish.

Rolli o'yinlar va sahnalashtirish orqali matnni jonlantirish.

Muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni matn asosida yechish.

Matn bo'yicha krossvord, boshqotirma, rebus tuzish.

Ushbu topshiriqlarning har biri o'quvchilarda matnga nisbatan faol munosabatni shakllantirishga, uni shaxsiy tajriba va ijodiy salohiyat bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi tahlil etildi. Ijodiy topshiriqlarning o'qish savodxonligini shakllantirishga ta'siri matnni chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlar va hissiy idrokning rivojlanishi orqali sodir bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, bunday topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil o'rganish, axborotni qayta ishlash va yangi g'oyalarni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qish savodxonligini baholashda ijodiy topshiriqlar an'anaviy test usullaridan farqli o'laroq, o'quvchilarning chuqur tushunish darajasini, ularning matnni talqin qilish va uni ijodiy qo'llash qobiliyatini aks ettirishga imkon beradi. Bu o'quv jarayonining bir qismi sifatida shakllantiruvchi baholashni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

Har qanday darsda albatta turli metodlardan foydalaniladi. Darsning har bir bosqichida har xil metodlardan foydalanish darsning samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida qo'llash uchun tanlangan "FSMU", "Aqliy hujum", "Akvarium" metodlarini 3-sinf o'quvchilarida o'tkazib ko'rilganda, quyidagi natijalarga erishildi. Tadqiqot 5 hafta davomida olib borildi. "FSMU" metodi orqali o'quvchilarning o'qish tezligi va aniqligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Dastlabki haftalarda o'quvchilar o'qishdagi xatolarni aniqlashda qiyinchilikka duch kelgan bo'lsa, oxirgi haftalarda ular xatolarni o'zlari tuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasining shakllanganligini ko'rsatdi.

"Aqliy hujum" metodi: Ushbu metod dars davomida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'ldi. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undagan metod, ularning o'qish va matnni tushunish bo'yicha ko'rsatkichlarini 25% ga oshirdi.

"Akvarium" metodi: O'quvchilarning guruh bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va matn ustida mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ushbu metod samarali bo'ldi. Guruhlarda fikr almashish va o'z fikrini himoya qilish jarayonida o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq tushunish va uni tahlil qilish ko'nikmalarini egallashdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqot boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning strategik ahamiyatini nazariy jihatdan tasdiqladi. Ijodiy topshiriqlar shunchaki o'quv jarayonini diversifikatsiya qilish vositasi emas, balki o'quvchilarni matn bilan faol muloqotga kirishishga, uni chuqur idrok etishga, tanqidiy tahlil qilishga va o'z fikrlarini original tarzda ifodalashga undovchi fundamental pedagogik vositadir. Ular o'quvchilarda nafaqat kognitiv(tushunish, tahlil, sintez, baholash) ko'nikmalarini, balki affektiv(motivatsiya, qiziqish, o'ziga ishonch, hissiy bog'lanish) jihatlarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodiy topshiriqlarni muntazam qo'llash matnni o'zlashtirish jarayonini passiv qabul qilishdan faol qurish jarayoniga aylantiradi. Bu o'z navbatida o'qish savodxonligining barcha komponentlarini – matnni tushunish, talqin qilish, unga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish va olingan bilimlarni ijodiy qo'llash

qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, ijodiy topshiriqlar o'quvchilarga o'zining individual uslubini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Ular o'qish savodxonligini baholashda ham yangi imkoniyatlarni ochib, o'quvchilarning matni chuqur anglash darajasini obyektiv aks ettira oladi.

Kelajakda ushbu mavzu bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lib, ular ijodiy topshiriqlarning turli turlarining o'qish savodxonligining ma'lum komponentlariga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashga, shuningdek, uzoq muddatli ta'sirlarni o'rganishga qaratilishi mumkin. Bundan tashqari, ijodiy topshiriqlar orqali o'qish savodxonligini baholashning samarali metodologiyalarini ishlab chiqish ham muhim tadqiqot yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxasislari uchun metodik qo'llanma. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019. – 92 b.
2. Sadriddinova Z.M. “Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi ta'limini ijodiy tashkil etishning mohiyati va o'lchovlari” mavzusidagi maqolasi. Qo'qon Universiteti xabarnomasi, Kokand University Herald scientific-journal, 2024.-211 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 997-son <https://lex.uz/docs/-4097073>
4. Anvarova M.A. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish” mavzusidagi PhD dissertatsiyasi.

Elektron resurslar:

1. <https://lex.uz/docs/-4097073>